XALQ DEPUTATLARI SAYXUNOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 21-oktabr VI-85-164-9-126-K/24 Sayxunobod tumani

Sayxunobod tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi **299-sonli** qarorining **1-ilovasi** bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2024-yil 19-avgustdagi 130-9-126-F/24-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tumandagi shaharcha va qishloqlarlarining umumiy perimetri **349916 metr** umumiy maydoni **45106,10 gektar** ekanligi aniqlandi

Jumladan:

Sayxun shaharchasi umumiy peremetri 6309 metr, umumiy maydoni 155,51 gektar;

Guliston qishlog‘i umumiy peremetri 61403 metr, umumiy maydoni 10126,35 gektar;

Istiqlol qishlog‘i umumiy peremetri 36547 metr, umumiy maydoni 4217,74 gektar;

Ittifoq qishlog‘i umumiy peremetri 56040 metr, umumiy maydoni 6636,73 gektar;

Nurota qishlog‘i umumiy peremetri 45378 metr, umumiy maydoni 5163,41 gektar;

O‘zbekiston qishlog‘i umumiy peremetri 52325 metr, umumiy maydoni 7590,95 gektar;

Sho‘ro‘zak qishlog‘i umumiy peremetri 38780 metr, umumiy maydoni 5907,92 gektar;

Yangihayot qishlog‘i umumiy peremetri 53134 metr, umumiy maydoni 5307,49 gektar;

Sayxunobod tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shaharcha va qishloqlar chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb

yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Davlat kadastrlari palatasining Sayxunobod tumani filiali rahbarining axborotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Davlat kadastrlari palatasining Sayxunobod tumani filiali rahbari I.Ibodullayevning Sayxunobod tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Sayxunobod tumanidagi shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh tarkibining 2024-yil 17-sentabrdagi 12-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sayxunobod tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati (M.Esirgapov)ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

4.Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Sirdaryo viloyat Kengashidan so‘ralsin.

5.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari G‘.Xoliqberdiyev, tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo'jaligi masalalari va aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha doimiy komissiya raisi X.Raxmonov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi JALOLOV TURG‘UN ISROILOVICH

Xalq deputatlari Sayxunobod tumani
Kengashining
2024-yil 21-oktabrdagi
VI-85-164-9-126-K/24 -son qaroriga
1-ilova


Sayxunobod tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida

M A ’ L U M O T

T/r	Ma’muriy-hududiy birliklarning nomi	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1	Sayxun shaharchasi	6309	155,51
2	Guliston qishlog‘i	61403	10126,35
3	Istiqlol qishlog‘i	36547	4217,74
4	Ittifoq qishlog‘i	56040	6636,73
5	Nurota qishlog‘i	45378	5163,41
6	O‘zbekiston qishlog‘i	52325	7590,95
7	Sho‘ro‘zak qishlog‘i	38780	5907,92
8	Yangihayot qishlog‘i	53134	5307,49
	Jami	**349916**	**45106,10**

Xalq deputatlari Sayxunobod tumani
Kengashining
2024-yil 21-oktabrdagi
VI-85-164-9-126-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanining shaharcha va qishloqlar chegara chizig'ining kartografik CHIZMASI



Shartli belgilar

- Viloyat chegarasi
- Tumanlar chegarasi
- Shaharcha chegarasi
- Qishloqlar chegarasi